O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ANDIJON VILOYATI HOKIMINING
QARORI

Andijon shaxar, Abdurauf Fitrat ko’chasi 239-uy

2024 - yil 26 - mart 108-1-0-Q/24 Andijon viloyati hokimligi

Viloyatdagi bozorlar va savdo komplekslarida bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovi va ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymati miqdorlarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-apreldagi "Dehqon bozorlari va savdo komplekslari faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-1326-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 28-avgustdagi “Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini tartibga solishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 253-sonli qaroriga muvofiq, “Andijonviloyatbozorlari va savdo komplekslari” uyushmasining 2023-yil 4-dekabrdagi 1/1-236-sonli, Andijon viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 20-dekabrdagi 03/01-11-38/1586-1-sonli, Andijon viloyat Davlat soliq boshqarmasining 2023-yil 5-dekabrdagi 20/5-1851-sonli xatlarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-,25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 20-dekabrdagi 03/01-11-38/1586-1-sonli, viloyat Davlat soliq boshqarmasining 2023-yil 5-dekabrdagi 20/5-1851-sonli, “Andijonviloyatbozorlari va savdo komplekslari” uyushmasining 2023-yil 4-dekabrdagi 1/1-236-sonli "Viloyatdagi bozorlar va savdo komplekslarida bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovi va ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymati miqdorlarini belgilash to‘g‘risida”gi takliflari ma’qullansin.

2. Viloyatdagi bozorlar va savdo komplekslarida bir martalik joy haqi va pullik xizmatlar ko‘rsatish badallar miqdorlari hamda bozorlar va savdo komplekslari hududidagi bino, inshootlar va inventarlarni ijaraga berish va ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun undiriladigan to‘lovlar miqdorlari 1-2-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

3. Viloyat Davlat soliq boshqarmasi (Qurbonov) va “Andijonviloyatbozorlari va savdo komplekslari” uyushmasi (Mamarasulov) tuman, shahar hokimliklari bilan birgalikda:

bozorlar va savdo komplekslaridan tushadigan bir martalik yig`imlar, ijara to‘lovlari va ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymatini belgilangan tartibda to‘liq

undirilishini;

yangi tasdiqlangan bir martalik yig`imlar, ijara to‘lovlari va ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymati miqdorlari haqida viloyatdagi barcha bozorlar va savdo komplekslari, sotuvchi va xaridorlar e'tiboriga yetkazilishi, bu haqidagi ma'lumotlarni barcha ko`rinarli joylarga joylashtirilishi hamda amalda tatbiq etilishi ustidan nazorat o`rnatilishini ta'minlasinlar.

4. “Andijonviloyatbozorlari va savdo komplekslari” uyushmasi (Mamarasulov) hamda Andijon Standartlashtirish va metrologiya boshqarmasi (Teshayev) yuqorida qayd etilgan qaror bilan yuklatilgan vazifalarni to‘liq bajarilishini ta’minlasin.

5. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan Andijon viloyat hokimining 2021-yil 25-martdagi “Viloyatdagi bozorlarda bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovi va ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymati miqdorini belgilash to‘g‘risida”gi 95-q-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Qaror “Andijonnoma” va “Andijanskaya pravda” gazetalarida e’lon qilinsin hamda viloyat hokimligining veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Viloyat teleradiokompaniyasi (Isroilov) hamda “Andijonnoma” va “Andijanskaya pravda” gazetalari tahririyatlari (Eshonov)ga viloyat bozorlari va savdo komplekslarida joriy yilgi bir martalik joy haqqi va pullik xizmat to‘lovlari miqdorlarini ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritish tavsiya etilsin.

8. Qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

9. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari D.Karimov va viloyat hokimligi Axborot-tahlil guruhi rahbari M.Maxmudov zimmalariga yuklansin.

Viloyat hokimi **SH.Q.Abdurahmanov**

Andijon viloyat hokimining
2024-yil 26-martdagi
108-1-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Bozorlarda va savdo komplekslarining ma'muriyatlari tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig‘imlarning miqdori

(so‘m hisobida)

t/r	Mahsulot turi	O‘lchov birligi	viloyat markazi va viloyatga bo‘ysunuvchi shaharlar	Tumanlar
1.	**Mahsulotlarni savdo o‘rinlarida sotish:**			
1.1.	**Mevalar:** **Ho‘l mevalar:** **olma, anor, nok, shaftoli, anjir, olxo‘ri, gilos, ko‘k va qizil sulton, o‘rik, uzum, olcha, qulupnay, malina va hokazo sotuvchilaridan:**	1 o‘rin/kunga	10 000	8 000
	Sitrus va tropik mevalar (apelsin, mndarin, limon, banan, ananas, kivi va h.k.) hamda chet eldan keltirilgan boshqa ho‘l mevalar sotuvchilaridan	1 o‘rin/kunga	14 000	12 000
	Quruq mevalar, yong‘oqlar sotuvchilaridan:	1 o‘rin/kunga	15 000	13 000
1.2.	**Sabzavotlar:**			
	Kartoshka, piyoz, karam, sabzi, sarimsoq, lavlagi, sholg‘om, bulg‘or qalampiri, baqlajon, patison, pomidor, bodring va h.k. hamda pishirilgan jo‘xori sotuvchilaridan	1 o‘rin/kunga	7 000	6 000
1.3.	**Poliz mahsulotlari: handalak, qovun , tarvuz, qovoq va boshqa poliz mahsulotlar sotuvchilaridan 6 kv.m-gacha**	1 o‘rin/kunga	13 000	11 000
1.4.	**Don mahsulotlari:** **guruch, kungaboqar, yormalar (krupa), bug‘doy, suli, arpa va h.k.**	1 o‘rin/kunga	9 000	8 000
1.5.	**Dukkakli mahsulotlari:** **mosh, loviya, no‘xat va h.k.**	1 o‘rin/kunga	8 000	7 000
1.6.	**Sut mahsulotlari:** **sut, qattiq, qaymoq, smetana, uy pishlog‘i, suzma va h.k.**	1 o‘rin/kunga	7 000	6 000
1.7.	**Tuzlamalar:** **karam, bodring, pomidor va h.k.**	1 o‘rin/kunga	8 000	7 000

1.8.	**Ziravor va dorivorlar (zira, murch, qalampir va h.k) hamda asal**	1 o‘rin/kunga	8 000	7 000
1.9.	**Ko‘kat (shu jumladan, issiqxonada yetishtirilganlar) sotuvchilaridan**	1 o‘rin/kunga	7 000	6 000
1.10.	**Tuxum**	1 o‘rin/kunga	7 000	6 000
1.11.	**Gullar va ko‘chatlar (6 kv.metrgacha)**	1 o‘rin/kunga	8 000	6 000
1.12.	**Non mahsulotlari (obi non, patir va h.k)**	1 o‘rin/kunga	8 000	7 000
1.13.	**Uyda tayyorlangan konservalangan mahsulotlar, pazandachilik mahsulotlari va uy sharoitida tayyorlangan qandolatchilik mahsulotlari sotuvchilaridan**	1 o‘rin/kunga	10 000	9 000
1.14.	**Sanoat yo‘li bilan ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari va salqin ichimliklar sotuvchilaridan**	1 o‘rin/kunga	9 000	8 000
1.15.	**Milliy taomlar (kabob, tandirsoma, osh, sho‘rva va boshqalar)**	1 o‘rin/kunga	11 000	9 000
1.16.	**Polietilen va qog‘oz paketlar, savatlar va posilka qutilar sotuvchilaridan**	1 o‘rin/kunga	7 000	6 000
1.17.	**Supurgi**	1 o‘rin/kunga	6 000	5 000
1.18.	**Tirik baliq va baliq mahsulotlari sotuvchilaridan**	1 o‘rin/kunga	12 000	10 000
1.19.	**Xalq ijodkorligi, xalq hunarmandchiligi va kosibchilik tovarlari (6 kv. metrgacha)**	1 o‘rin/kunga	9 000	8 000
	-telpaklar: tabiiy mo‘ynali	1 o‘rin/kunga	13 000	12 000
	sun'iy mo‘ynali	1 o‘rin/kunga	8 000	7 000
	-kastyum va palto sotuvchilaridan	1 o‘rin/kunga	12 000	11 000
2.	**Go‘sht mahsulotlari: mol, qo‘y, cho‘chqa, parranda go‘shti, jigar, dumba va h.k.**	1 o‘rin/kunga	14 000	13 000
3.	**Mahsulotlarni avtomashinalardan sotish: yengil avtomashinalaridan sotish**	1 mashina	11 000	8 000
	yuk avtomashinalaridan sotish	1 mashina	13 000	10 000
	tirkamali, yarim tirkamali yuk avtomashinalari va avtopoezdlardan sotish	1 mashina	13 000	10 000
	mahsulotlarni yerdan sotish (savdo rastalaridan tashqarida, maxsus ajratilgan joylarda) (6 kv. metrgacha)	1 o‘rin/kunga	8 000	7 000
4	**Uy hayvonlari uchun yem-ozuqalar (har bir tirkama yoki yuk avtomashinasi uchun): shrot, sheluxa kombikorma, pichan, somon, guruch va makkajo‘xori poyasi va h.k.**	1 mashina	12 000	12 000
5	**Qurilish materiallari sotish:**			
5.1.	**Bozorlar va savdo komplekslari tomonidan maxsus ajratilgan joylarda og‘ir va katta o‘lchamdagi qurilish materiallarini sotish**			
	a) 6 metr kvadrat uchun	1 o‘rin/kunga	14 000	13 000

	b) 6-15 metr kvadratgacha	1 o‘rin/kunga	21 000	19 000
	v) 15 metr kvadratdan 30 kv.metrgacha	1 o‘rin/kunga	23 000	21 000
5.2.	Kichik o‘lchamdagi qurilish materiallari (mayda o‘lchamli), santexnika, yoritish uskunalari (lyustra, svetilniklar va h.k.) sotish (6 kv. metrgacha)	1 o‘rin/kunga	8 000	7 000
5,3	**Shag‘al va qum sotuvchilaridan 1 mashinaga**	1 mashina	14 000	12 000
6	**Tijorat yo‘li bilan keltirilgan oziq-ovqat va sanoat mollari sotuvchilaridan**	1 o‘rin/kunga	22 000	20 000
	-tabiiy charm va mo‘ynali tayyor kiyim sotuvchilaridan	1 o‘rin/kunga	22 000	20 000
	-televizor, radio, magnitafon sotuvchilaridan	1 o‘rin/kunga	22 000	20 000
	-sellofan paket sotuvchilaridan	1 o‘rin/kunga	8 000	7 000
6,1	**Respublikada ishlab chiqarilgan sanoat mollari sotuvchilaridan**	1 o‘rin/kunga	11 000	10 000
6,2	**Palos va gilam sotuvchilaridan**			
	a) 5 metr kv-gacha bo‘lsa	1 o‘rin/kunga	20 000	17 000
	b) 5 metr kv-dan ortiq bo‘lsa	1 o‘rin/kunga	25 000	22 000
6,3	**Attorlik mahsulotlari (har xil mayda xalq iste'mol tovarlar)**	1 o‘rin/kunga	9 000	8 000
6,4	**Mebel mahsulotlari sotuvchilaridan:**			
	-yakka mebel jihozlarining bir donasi uchun	1 dona	20 000	16 000
	-mebel jamlamasi uchun	1 dona	25 000	22 000
7	**Ilgari foydalanishda bo‘lgan buyumlar va ehtiyot qismlarni sotish:**			
	Avtomobillar uchun ehtiyot qismlar	1 o‘rin/kunga	13 000	11 000
	Eski ehtiyot qismlar	1 o‘rin/kunga	9 000	9 000
	Uy-ro‘zg‘or jihoz buyumlari va kiyim-kechaklar	1 o‘rin/kunga	8 000	7 000
8	**Avtotransport vositalarini sotish:**			
	yengil avtomashinalar va mikroavtobuslar	1 dona	30 000	
	yuk avtomashinalari, avtobuslar, traktorlar va boshqa yuk ko‘taruvchi transport vositalari	1 dona	35 000	
	Avtomobillarga qo‘shimcha ulov (pritsep)lar sotuvchilaridan	1 ulov	15 000	

	MDH (SNG) davlatlarida ishlab chiqarilgan avtomobil sotuvchilaridan	1 dona	22 000	
	mototsikl, motoroller va mopedlar	1 dona	11 000	11 000
	velosipedlar	1 dona	9 000	9 000
	Avtoshina sotuvchilarni har biriga. A) Yangi	1 o‘rin/kunga	17 000	
	B) Eski	1 o‘rin/kunga	11 000	
	Elektrsvarka, tokarlik va har-xil ta'mirlash xizmati ko‘rsatuvchilaridan	1 o‘rin/kunga	10 000	9 000
9	**Mol bozoriga olib kiriladigan har bir chorva mollari uchun**			
9.1.	**Ot, toy, tuya**	1 bosh	25 000	18 000
	bo‘taloq, eshak	1 bosh	17 000	12 000
9.2.	**Yirik shoxli qoramol:**			
	Yirik shoxli qoramol	1 bosh	20 000	20 000
	Buzoq	1 bosh	17 000	17 000
9.3.	**Mayda shoxli qoramol**			
	qo‘y, echki	1 bosh	15 000	15 000
	qo‘zi, uloq	1 bosh	12 000	12 000
9.4.	**Cho‘chqa va cho‘chqa bolalari**	1 bosh	10 000	8 000
10.	**Uy parrandalari: kurka, tovuq, o‘rdak, g‘oz**	1 bosh	4 000	4 000
	tovuq, kurka, o‘rdak, g‘oz jo‘jalari	10 bosh	3 000	3 000
11	**Itlar va mushuklar**	1 o‘rin/kunga	5 000	4 000
12	**Manzarali qush va akvarium baliqlar (bir o‘ringa)**	1 o‘rin/kunga	6 000	5 000
13	**Itlar, mushuklar, manzarali qushlar va baliqlar uchun ozuqalar hamda tegishli aksessuarlar va buyular**	1 o‘rin/kunga	6 000	5 000
14	**Itlar, mushuklar, manzarali qushlar va baliqlar, shuningdek ularning ozuqalari va tegishli aksessuarlar va buyumlar, bir joyda**	1 o‘rin/kunga	6 000	5 000

15	**Poyabzal ta'mirlash xizmati**	1 o‘rin/kunga	3 000	3 000

Andijon viloyat hokimining
2024-yil 26-martdagi
108-1-0-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Bozorlar va savdo komplekslari hududidagi bino, inshootlar va inventarlarni ijaraga berish va ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun undiriladigan to‘lovlarining miqdori

(so‘m hisobida)

t/r	Ko‘rsatiladigan xizmatlar turi	O‘lchov birligi	viloyat markazi va viloyatga bo‘ysunuvchi shaharlar	Tumanlar
	Nooziq-ovqat mahsulotlari sotish	1 kv.m / oyiga	22000	12000
	Oziq-ovqat mahsulotlari sotish	1 kv.m / oyiga	15000	8000
	Umumiy ovqatlanish	1 kv.m / oyiga	18000	10000
	Maishiy xizmat ko‘rsatish	1 kv.m / oyiga	8000	6000
	Boshqa turlar (Ombor, ofis, apteka, paynet)	1 kv.m / oyiga	8000	6000
2.	**Inventarlarni ijaraga berish:**			
2.1.	**Tosh-tarozilar uchun**	1 kunga	4 000	4 000
2.2.	**Katta yuk tortish tarozilari uchun**			
	-150 kg.gacha tortadigan	1 kunga	4 000	4 000
	-150 kg.dan 1500 kg.gacha tortib berish uchun	1 kunga	12 000	9 000
2.3.	**Savdo jihozlari uchun (bolta, taxtakach, pichoq, o‘rindiq, voronka, patnis, savat va h.k.) (butun to‘plam uchun, bunda to‘plam savdo faoliyati turi zaruratidan kelib chiqqan holda aniqlanadi)**	1 kunga	2 000	1 500
2.4.	**Maxsus ust-bosh kiyimlar uchun (xalat, etak, yenglik) (butun to‘plam uchun, bunda to‘plam savdo faoliyati turi zaruratidan kelib chiqqan holda aniqlanadi)**	1 kunga	1 500	1 500
2.5.	**Mahsulotlar uchun brezent berish**	1 kunga	2 500	2 500
2.6.	**Yuk aravacha uchun bir kunga "Jaxon" savdo kompleksida bozor kunlar:**	1 kunga	12 000	
	-boshqa bozorlarda	1 kunga	10 000	9 000
	-konteyner aravachalar uchun	1 kunga	7 000	6 000
2.7.	**Reklama joylashtirishga ajratilgan yer maydonidan foydalanganligi uchun (1m2)**	1 kunga	6 000	5 000
3.	**Ko‘rsatiladigan xizmat turlari:**			
3.1.	**Qishloq xo‘jalik va boshqa oziq -ovqat mahsulotlarini saqlash:**			
	sovutgichlarda (har bir yashik, qop va h.k.uchun)	1 kunga	5 000	5 000
	omborxonalarda, saqlash kameralarida (har bir yashik, qop va h.k.uchun)	1 kunga	4 000	4 000
3.2.	**Buyumlarni omborlarda buyumlarni saqlash (50x50x100 o‘lchamdagi joy uchun)**	1 kunga	4 000	4 000
3.3.	**Mahsulotlarni tarozidan tortish uchun:**			
	katta yuk tarozida	1-marta tortish	3 000	3 000
	yirik va mayda shohli qoramollarni tortish	1-marta tortish	3 500	3 500
3.4.	**Avtotarozilardan foydalanish:**			
	Yuk ko‘tarish quvvati 5 tonnadan ortiq bo‘lgan, tirkamali, yarim tirkamali yuk avtomashinalari va avtopoezdlardan:			
	yuk bilan	1-marta o‘lchash	4 000	3 000
	yuksiz	1-marta o‘lchash	3 000	2 000
	Yuk ko‘tarish quvvati 5 tonnagacha bo‘lgan, tirkamali, yarim tirkamali yuk avtomashinalaridan:			
	yuk bilan	1-marta o‘lchash	3 000	2 500
	yuksiz	1-marta o‘lchash	2 000	2 000
	Yengil avtomashinalardan:			
	yuk bilan	1-marta o‘lchash	2 000	1 500
	yuksiz	1-marta o‘lchash	1 500	1 500
	Tirkamali yengil avtomashinalardan:			
	yuk bilan	1-marta o‘lchash	2 000	1 500
	yuksiz	1-marta o‘lchash	1 600	1 200
3.5.	**Mehmonxona xizmatidan foydalanish (1 ta joy uchun)**	1 kunga	6 000	6 000
3.6.	**Avtotransport vositalarini vaqtinchalik saqlash uchun:**			
	Yengil avtomashinalar uchun	1 soatga	2 000	2 000
	Yuk avtomashinalar uchun	1 soatga	4 000	3 000
	Sotuvga olib kelingan barcha turdagi avtomobillarni bir kun saqlash uchun	1 kunga	10 000	
3.7.	**Hojatxona xizmatidan foydalanish**	1-marta	2 000	2 000
3.8.	**Telefondan foydalanish**	1-marta	500	500
3.9.	**Radiouzel orqali e'lon berish**	3-marta takror	1 000	1 000
3.10.	**Mahsulotlarni bozorlarda sotib olinganligini tasdiqlovchi ma'lumotnoma yozib berish uchun:**			
	a) 500 ming so‘mgacha		10 000	10 000
	b) 500 ming so‘mdan 1000 ming so‘mgacha		14 000	14 000
	v) 1000 ming so‘mdan ortig‘iga		40 000	40 000
3.12.	Transport vositalarining yuk ortish va yuk tushirish uchun bozorlar va savdo komplekslari hududiga kirishi (qishloq xo‘jalik mahsulotlarini tushirish uchun kirgan avtotransport vositalari bundan mustasno)			
	yengil avtomashinalari uchun	1-marta	4 000	4 000
	yuk avtomashinalari uchun	1-marta	6 000	5 000
	yuk aravalari uchun	1-marta	3 000	3 000
3.13.	Qishloq xo‘jalik mahsulotlari ulgurji bozorlariga yuk ortish uchun			

1.	**Bozorlar va savdo komplekslari balansidagi bino, inshootlardan foydalanganlik uchun oylik to‘lov**			

	yengil avtomashinalari uchun	1-marta	4 000	3 000
	yuk avtomashinalari uchun	1-marta	5 000	4 000
	tirkamali yengil avtomashinalari uchun	1-marta	4 000	3 000
3.14.	**Bozorlar va savdo komplekslari hududi va unga tutash bo‘lgan umumiy foydalaniladigan ob'ektlarni saqlash bo‘yicha ko‘rsatiladigan majburiy xizmatlar (asfaltlangan va bruschatka yotqizilgan yo‘laklar, trotuarlar, kirish va chiqish joylari, yer osti va usti kanalizatsiya lotoklari, ichki va tashqi yoritish tarmoqlari va inshootlari, ichimlik suvining sanitar-texnik bo‘g‘inlari, umumiy hududni qo‘riqlash va tozalash, maishiy va meva-sabzavot mahsulotlarining chiqindilarini yig‘ish va olib chiqish, tashqi muhandislik-kommunikatsiya inshootlari)***			
	Nooziq-ovqat mahsulotlari sotish	1 kv.m / oyiga	14 000	12 000
	Oziq-ovqat mahsulotlari sotish	1 kv.m / oyiga	14 000	12 000
	Umumiy ovqatlanish	1 kv.m / oyiga	14 000	12 000
	Maishiy xizmat ko‘rsatish	1 kv.m / oyiga	10 000	9 000
	Ombor	1 kv.m / oyiga	9 000	8 000
	Boshqa turlar (ofis, apteka, paynet)	1 kv.m / oyiga	9 000	8 000

Izoh:

Bozorlar va savdo komplekslari hududi va unga tutash bo‘lgan umumiy foydalaniladigan ob'ektlarni saqlash bo‘yicha ko‘rsatiladigan majburiy xizmatlar kadastr hujjatlarida ko‘rsatilgan egallangan yer maydonlaridan kelib chiqib undiriladi.

- bozorlarga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tushirish uchun kirgan barcha avtotransport va boshqa yuk tashish vositalaridan bozor hududiga kirish uchun to‘lovlar undirilmaydi va ushbu avtotransport vositalarida keltirilgan yuklarni tushirish uchun qulayliklar yaratish bozorlar ma'muriyati zimmasidadir.

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilar tomonidan bir marta olib kelingan va 10 kilogrammgacha bo‘lgan mahsulotlardan yig‘im olinmaydi.

- o‘zlari yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sotuvchisi, ikkinchi jahon urushining nogironi, shaxsiy nafaqa oluvchi bo‘lsalar ulardan yig‘im 50 foiz miqdorida undiriladi.

- Respublika hududida ishlab chiqarilgan oziq-ovqat va sanoat mollari bilan bir qatorda import tovarlari sotilsa, joy haqi import tovarlariga belgilangan miqdorlarda undiriladi.

- O‘zbekiston Qaxramonlari, qaxramon onalar, ikkinchi jahon urushi qatnashchilari shaxsiy avtomashinalarini sotishda 50 foizli imtiyozlardan foydalaniladi.

- Andijon shahar bozorlari tarkibidagi bozorlar filiallarida joy haqi va pullik xizmat to‘lovlari tuman bozorlari uchun belgilangan miqdorda undiriladi.

- bozorlar va savdo komplekslari hududidagi savdo rastalari va turg‘un savdo do‘konlarida davlat standartidan o‘tmagan shaxsiy o‘lchov asboblaridan (tarozi, tosh posangi) foydalanish qat'iyan man etiladi.

- bozor atrofi va hududida avtotransport vositalari faqat maxsus ajratilgan joylarda turadi.

- dehqon bozorlarida bir savdo o‘rni 1.2 m belgilandi.

-* mulkdor tomonidan to‘lanadigan xizmatlar uchun majburiy to‘lov uning boshqa sub'ektlar bilan bo‘lgan har qanday aloqalaridan qat'iy nazar to‘lanishi shart.